



## ISSUES OF UNIFYING THE LEGAL REGULATION OF INFORMATION SERVICES IN STATE BODIES: A CASE STUDY OF THE DRAFT INFORMATION CODE

*Sayyora Kuchkorova*

*Master's student in Mass Media Law*

*Tashkent State University of Law*

*e-mail: [abdullayevnasayyora391@gmail.com](mailto:abdullayevnasayyora391@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Information Code, unification, information service, legal status, press secretary, codification, ISO/IEC 27001, professional ethics, openness, digital transformation, legal inflation.

**Received:** 11.04.26

**Accepted:** 12.04.26

**Published:** 13.04.26

**Abstract:** This article analyzes the issues of unifying the legal regulation of information services in state bodies and organizations, using the draft Information Code of the Republic of Uzbekistan as a primary case study. The research scientifically examines problems such as the fragmentation of existing legislation, the duplication of legal norms, and the dualism inherent in the legal status of information service heads (press secretaries). During the study, a comparative legal analysis was conducted involving international ISO/IEC 27001 standards and the norms of the CIS Model Code. The article puts forward scientific and legal proposals aimed at strengthening the hierarchical position of information services, prohibiting the imposition of additional duties outside their functional scope, and implementing professional codes of ethics. In conclusion, the author substantiates that the codification process is essential for ensuring transparency in public administration and guaranteeing citizens' rights to access information.

## DAVLAT ORGANLARI AXBOROT XIZMATLARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI UNIFIKATSIYALASH MASALALARI: AXBOROT KODEKSI LOYIHASI MISOLIDA

*Sayyora Quchqorova*

*Ommaviy axborot vositalari huquqi magistranti*

Toshkent davlat yuridik universiteti  
e-mail: [abdullayevnasayyora391@gmail.com](mailto:abdullayevnasayyora391@gmail.com)  
Toshkent, O'zbekiston

---

### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** Axborot kodeksi, unifikatsiyalash, axborot xizmati, huquqiy maqom, matbuot kotibi, kodifikatsiya, ISO/IEC 27001, kasbiy etika, ochiqlik, raqamli transformatsiya, huquqiy inflyatsiya.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni unifikatsiyalash masalalari O'zbekiston Respublikasining Axborot kodeksi loyihasi misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda sohadagi qonunchilikning tarqoqligi, normalarning takrorlanishi va axborot xizmati rahbarlarining huquqiy maqomidagi dualizm muammolari ilmiy jihatdan ko'rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida xalqaro ISO/IEC 27001 standartlari va MDH Model kodeksi normalari bilan qiyosiy-huquqiy tahlillar o'tkazilgan. Maqolada axborot xizmatlarining iyerarxik o'rnini mustahkamlash, ularga funksional vazifasiga kirmaydigan qo'shimcha majburiyatlar yuklashni taqiqlash hamda kasbiy odob-axloq qoidalarini joriy etish bo'yicha ilmiy-huquqiy takliflar ilgari surilgan. Yakunda kodifikatsiya jarayoni davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarning axborot olish huquqlarini kafolatlashning muhim ekanligi asoslab berilgan.

---

### ВОПРОСЫ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ СЛУЖБ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ: НА ПРИМЕРЕ ПРОЕКТА ИНФОРМАЦИОННОГО КОДЕКСА

*Сайёра Кучкарова*

*Магистрант по направлению «Право средств массовой информации»*

*Ташкентского государственного юридического университета*

e-mail: [abdullayevnasayyora391@gmail.com](mailto:abdullayevnasayyora391@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** Информационный кодекс, унификация, информационная служба, правовой статус, пресс-секретарь, кодификация, ISO/IEC 27001, профессиональная этика, открытость, цифровая трансформация, правовая инфляция.

**Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы унификации правового регулирования деятельности информационных служб государственных органов и организаций на примере проекта Информационного кодекса Республики Узбекистан. В исследовании научно

рассмотрены проблемы раздробленности законодательства в данной сфере, дублирования норм и дуализма в правовом статусе руководителей информационных служб. В процессе исследования проведен сравнительно-правовой анализ международных стандартов ISO/IEC 27001 и норм Модельного кодекса СНГ. В статье выдвинуты научно-правовые предложения по укреплению иерархического положения информационных служб, запрету на возложение на них дополнительных обязанностей, не входящих в их функциональные задачи, а также внедрению правил профессиональной этики. В заключении обоснована важность процесса кодификации в обеспечении прозрачности государственного управления и гарантировании прав граждан на получение информации.

---

**Kirish.** Bugungi kunda axborotga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib, davlat boshqaruvi va jamiyat o‘rtasidagi munosabatni uzviy bog‘lovchi vositaga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, axborot sohasini jadal rivojlantirishda ustuvor vazifa darajasiga ko‘tarilgan. Bu borada “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvini raqamlashtirishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, raqamli rivojlanish davrida, internet foydalanuvchilarining sonining keskin ortishi yaqqol misol bola oladi. Xususan, O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 2017 yildagi 14,7 milliondan 2025-yilga kelib 32,7 millionga yetdi. Hamda hozirgi kunda ushbu ko‘rsatkich 120% foizdan oshdi [1, 29-bet]. Bunday sharoitda mutaxassislarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Zero, media-oqimlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarining shakllanishi axborot xizmatlari faoliyatini huquqiy tartibga solish hamda davlat axborot siyosatini yagona tizimga keltirish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi [2, 93-bet]. Shu bois, axborot sohasini huquqiy tartibga solish va davlat organlarining axborot xizmatlari faoliyatini tizimlashtirish kechiktirib bo‘lmas vazifaga aylandi [1, 29-bet]. Shu bilan birgalikda, ushbu holat huquqiy munosabatlarni tartibga solishning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, davlat organlari axborot xizmatlarining faoliyati takomillashtirilishi, ularning huquqiy asoslarini zamon talablariga moslashtirilish dolzarb zarurat hisoblanadi. Jumladan, axborot sohasidagi amaldagi qonunchilikda sohaga oid kuchli huquqiy

baza mavjud. Ammo tahlillari shuni ko'rsatadiki, sohadagi normativ huquqiy hujjatlarning tarqoqligi ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda axborot sohasini tartibga soluvchi yagona va universal qonunchilik hujjati mavjud emas. Xususan, ushbu soha 10 dan ortiq alohida qonunlar bilan boshqarilmoqda [1, 32-bet]. Amaliyotda esa normalarning bir-birini takrorlashi huquqiy mavhumlikka olib keladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabr "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 439-II-son qonunning 11-moddasi va O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabr "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-son qonunning 19-20-moddalari bir xil mazmundagi normalarni takrorlaydi. [1, 32-bet]. Ushbu holat qonunchilik hujjatlarining tushunarlik darajasini pasaytiradi. Jumaladan, sohaning yetakchi mutaxassisi I.L. Bachilo ta'kidlaganidek, axborot qonunchiligi massividagi qonunlarning uzluksiz o'zgarishi amaliyotning huquqiy tartibga solish dinamikasidan ortda qolishiga sabab bo'ladi[3, 7-bet]. Qonun normalarining mazmunan takrorlanishi qonun chiqaruvchi texnikasining samaradorligini kamaytiradi. Bir xil munosabatni ikki xil qonun bilan tartibga solish amaliyotda *lex specialis* tamoyili ya'ni qaysi biriga ustunlik berish masalasini murakkablashtiradi. Shuni ta'kidlash joizki, davlat organlari axborot xizmatlarining huquqiy maqomida ham ziddiyatli holatlar kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27-iyudagi PQ-4366-son qarorlariga asosan, axborot xizmati rahbari bir vaqtning o'zida rahbarning matbuot kotibi va axborot siyosati bo'yicha maslahatchisi hisoblanadi [4]. Biroq, mehnatga haq to'lash va imtiyozlar bo'yicha ular rahbar o'rinbosariga tenglashtirilgan bo'lsa-da, ularning huquqiy maqomida "maslahatchi" va "o'rinbosar" tushunchalari o'rtasidagi nomutanosiblik axborot xizmatlarining mustaqilligini ta'minlashda huquqiy to'siqlar yaratadi.[4] Darhaqiqat, axborot xizmati rahbarining huquqiy maqomi borasidagi bunday noaniqliklar sohaning nazariy asoslarida ham kuzatiladi. To'liqin Eshbekov ta'kidlaganidek, matbuot kotibining birinchi rahbar bilan bevosita muloqotda bo'lishi va qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi xizmatning samaradorligini belgilaydi [5, 111-bet]. Biroq, amaliyotda PQ-4366-sonli qaror bilan berilgan rahbar o'rinbosariga tenglashtirilgan maqomi moddiy rag'batlantirish xarakteriga ega. Funktsional jihatdan esa maslahatchi statusi axborot xizmati xodimini boshqaruv iyerarxiyasida o'rinbosarlardan pastroq pog'onaga qo'yadi[5, 111-112-bet]. O'z navbatida, axborot xizmati rahbarining boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan munosabatga kirishishida iyerarxik to'siqlarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjuddir. Ushbu muammolarning asosiy sababi sohada yagona davlat axborot siyosati to'g'risidagi konseptual hujjatning mavjud emasligidadir.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining

2025-yil 4-martdagi “2025 - 2029-yillarga mo‘ljallangan qonun ijodkorligi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 595-V/KQ-105-V-sonli Qo‘shma qarori axborot sohasidagi qonunchilikni kodifikatsiya qilish uchun muhim strategik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qonun ijodkorligi dasturiga muvofiq, axborot sohasidagi tarqoq va bir-biriga o‘xshash qonun hujjatlarini yagona hujjatga jamlovchi “Axborot kodeksi”ni qabul qilish belgilangan[6, 32-band]. Bugungi kunda O‘zbekistonda axborot sohasini tartibga soluvchi mustahkam huquqiy poydevor yaratilgan. Shuningdek, “Axborot kodeksini tasdiqlash haqida”gi Qonun loyihasining 2-moddasiga muvofiq, axborot sohasini tartibga soluvchi jami 8 ta qonunlarni bekor qilish mo‘ljallangan. Bular, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonun, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to‘g‘risida”gi qonun, “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi qonun, va “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarni bekor qilish va ularning o‘rnini yagona kodifikatsiyalangan hujjat bilan to‘ldirish rejalashtirilgan [7, 1-2-betlar]. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ilk bor Axborot kodeksi loyihasi doirasida axborot xizmatlarining huquqiy maqomini milliy qonunchilik va xalqaro ISO/IEC 27001 standartlar shuningdek, MDH Model kodeksi normalari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot axborot sohasidagi tarqoq qonunlarni yagona tizimga keltirishning huquqiy mexanizmini asoslab beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ishlab chiqilayotgan O‘zbekiston Respublikasining Axborot kodeksi loyihasi doirasida axborot sohasidagi tarqoq normalarni unifikatsiya qilish. Jumladan loyihaning 110-moddasida belgilangan normalar asosida davlat organlari axborot xizmatlarining huquqiy maqomi mustahkamlash. Hamda iyerarxik o‘rni va funksional vazifalarini aniq belgilashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot raqamli davrda matbuot kotibining davlat boshqaruvidagi rolini takomillashtirish va yagona davlat axborot siyosatini samarali yuritish bo‘yicha ilmiy-huquqiy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

**Metodlar.** Mazkur tadqiqot obyekti va qo‘yilgan maqsadga erishish uchun bir-birini to‘ldiruvch zamonaviy ilmiy metodlardan amalda qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro axborot xavfsizligini huquqiy tartibga solishning zamonaviy konsepsiyalarini o‘rganishda V.P. Talimonchik tomonidan ilgari surilgan tizimli, strukturaviy va problematik-teoretik metodlarga tayanildi [8, 278-bet]. Shuningdek, axborot xizmatlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni unifikatsiyalash masalalarini o‘rganishda umumilmiy va maxsus huquqiy metodlardan

foydalanildi. Ushbu metodlar axborot sohasidagi munosabatlarni nafaqat milliy, balki global va mintaqaviy darajada unifikatsiyalash zarurligini ilmiy asoslash imkonini berdi. Tadqiqot jarayoni quyidagi uchta asosiy metodologik yondashuvga tayanadi. Bunda, qiyosiy-huquqiy tahlil metodi yordamida O'zbekiston Respublikasining axborot sohasidagi amaldagi milliy qonunchiligi xalqaro standartlar hamda xorijiy tajriba bilan solishtirildi. Bunda, axborot xavfsizligini boshqarish tizimining xalqaro ISO/IEC 27001 kabi standartlari va ularning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinish holati tahlil etildi [9, 25-bet; 10, 24-bet]. Bu metod milliy qonunchilikdagi unifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan jihatlarni aniqlash orqali ilg'or tendensiyalarni milliy Axborot kodeksi loyihasiga tatbiq etish imkonini berdi. Shu bilan birgalikda, axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning model variantlarini o'rganish maqsadida MDH ishtirokchi davlatlarining "Model Axborot kodeksi" normalari tahlil qilindi. Hamda undagi asosiy konsepsiyalar O'zbekistonning Axborot kodeksi loyihasi bilan qiyoslandi [11, 304-bet; 12, 72-bet]. Inventarizatsiya metod yordamida axborot xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning tarqoqligini o'rganish maqsadida, sohaga oid normativ hujjatlar tizimli inventarizatsiya qilindi [1, 32-bet]. Mazkur metod yordamida axborot sohasidagi qonunosti hujjatlari, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni [13], Vazirlar Mahkamasining 125-sonli qarori [14], Prezidentning PQ-4366-sonli [15] va PF-6247-sonli [16] hujjatlarining o'zaro muvofiqligi, ulardagi dublikatsiya ya'ni takrorlanishlar va huquqiy lakunalar izoh qilib aytganda bo'shliqlar tahlil qilindi. Ushbu metod huquqiy normalardagi takrorlanishlarni va ziddiyatli jihatlarni aniqlash imkonini berdi [6, 32-bet].

Axborot xizmati instituti davlat boshqaruvining yaxlit va ajralmas bo'g'ini sifatida tahlil qilindi [5, 166-bet]. Bunda axborot xizmatlarining ichki va tashqi kommunikatsiyalardagi roli, ularning davlat axborot siyosatini yuritishdagi funksiyalari tizimli tahlil etildi. Bu bilan birgalikda, boshqa davlat organlari bilan o'zaro aloqa mexanizmlari bir butun tizim sifatida o'rganildi [52, 61-bet; 7]. Ushbu yondashuv axborot xizmatini strategik qarorlar qabul qilishda ishtirok etuvchi mustaqil institut sifatida baholashga asos bo'ldi. Shuningdek, ushbu yondashuv axborot xizmatlarining iyerarxik va funksional aloqalarini Axborot kodeksi loyihasi doirasida yagona tizimga keltirish zaruratini ilmiy asoslashga xizmat qildi.

**Natijalar.** O'tkazilgan tizimli tadqiqot davomida axborot xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va Axborot kodeksi loyihasi tahlil qilinganda quyidagi muhim natijalar aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda qonunchilikdagi ziddiyatlar va axborot xizmati rahbarining huquqiy maqomida nomutanosibliklar mavjud. Ya'ni Amaldagi

normativ-huquqiy hujjatlarda axborot xizmati rahbarining huquqiy maqomi borasida konseptual ziddiyat kuzatiladi. Xususan, Prezident qarorlari va namunaviy nizomlarga ko'ra, axborot xizmati rahbari bir vaqtning o'zida davlat organi funksional maqomi bo'yicha rahbarining matbuot kotibi va axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi hisoblanadi [5, 21-bet; 16]. Shu bilan birga, moddiy rag'batlantirish va imtiyozlar bo'yicha ya'ni mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlariga ko'ra u rahbarning o'rinbosariga tenglashtirilgan [15; 5, 111-bet]. Bu holat davlat organi axborot xizmatining iyerarxiyasidagi o'rnini aniq belgilashda murakkabliklar tug'diradi. Xususan, bunday huquqiy dualizm axborot xizmati rahbarining amaliyotda vakolatlari va javobgarligi doirasini belgilashda huquqiy mavhumlikni ham yuzaga keltirmoqda. [5, 19-bet]. Sababi, maslahatchi instituti va rahbar o'rinbosari instituti davlat boshqaruvida tubdan farq qiluvchi iyerarxik pog'onalar hisoblanadi. Axborot sohasidagi qonunchilikning fragmentatsiyasini ya'ni tarqoqligini bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan Axborot kodeksi loyihasi tizimlashtirishning yuqori darajasi hisoblaadi.

O'zbekiston Respublikasining Axborot kodeksi loyihasini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, loyihaning 2-moddasi bilan mazmunan bir-birini takrorlovchi va tarqoq bo'lgan 8 ta muhim qonun "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonun, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonun, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonun, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" gi qonun, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, va "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi ushbu qonun normalarini yagona tizimga keltirish va ularni unifikatsiya qilish zaruratini tasdiqlaydi [7]. Eng muhimi, axborot xizmatlariga oid barcha normalar Kodeksning alohida 11-bobida "Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan axborotning ta'minlanishi" birlashtirilgan [7, 47-bet]. Ushbu bobda axborot xizmatining davlat organlari va tashkilotlari tarkibida mavjudligi majburiyigi hamda uning maqomi yagona norma sifatida mustahkamlangan. Ayniqsa, loyihaning 11-bob doirasidagi 110-moddasida axborot xizmatlarining huquqiy maqomi, vazifalari va vakolatlari yagona normalarda birlashtirilgan. Bu esa sohadagi tarqoq normalarni unifikatsiya qilish orqali huquqiy inflyatsiyaning oldini olishga xizmat qiladi [7, 51bet].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot xizmatlari faoliyatida xalqaro standartlarni (ISO/IEC 27000 seriyasi) milliy qonunchilikka singdirish va tizim ma'murlarining malakasini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [8, 25-bet; 1, 32-bet]. Natijalar shuni tasdiqladiki, Kodeks loyihasida axborot tizimlarining texnika vositalarini majburiy sertifikatlashtirish va axborotni

himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish majburiyati belgilanmoqda [7]. Xususan, axborot xizmati xodimlarining professional malakasiga bog'liq huquqiy majburiyat sifatida belgilanmoqda. Shuningdek, axborot xizmati rahbarlarini har uch yilda maxsus markazlarda attestatsiyadan o'tkazish tizimining joriy etilishi ularning professional malakasini doimiy nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, axborot xurujlariga qarshi tayyorgarligini oshirish oshirishga xizmat qiladi [17]. Natijada esa, davlat organlarining raqamli makondagi barqarorligini ta'minlovchi tizimli xavfsizlik mexanizmini yaratiladi.

**Muhokama va takliflar.** Tadqiqot natijalari axborot sohasidagi qonunchilikni kodifikatsiya qilish davlat boshqaruvining shaffofligini ta'minlovchi strategik zarurat ekanligini ko'rsatmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot sohasidagi amaldagi qonunchilikning fragmentatsiyalashuvi fuqarolarning axborot olish huquqini to'laqonli ro'yobga chiqarishda ma'lum huquqiy to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu sohaning 10 dan ortiq alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi normalarning bir-birini takrorlashiga va huquqni qo'llash amaliyotida chalkashliklarga sabab bo'lmoqda. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasining Axborot kodeksi loyihasida 8 ta tarqoq qonunni bekor qilib, ularni yagona hujjatga jamlash mo'ljallangan [7]. Bu jarayon huquqiy bo'shliqlarni to'ldirishning eng samarali vositasidir.

Axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ularning davlat organi tizimidagi huquqiy maqomiga bog'liq. Amaldagi PQ-4366-sonli qarorga muvofiq, axborot xizmati rahbari rahbarning maslahatchisi maqomiga ega va mehnatga haq to'lash bo'yicha o'rinbosarga tenglashtirilgan [15; 16]. Ammo, amaliyotda huquqiy dualizm iyerarxik to'siqlarni va asosiy faoliyatga kirmaydigan qo'shimcha majburiyatlar yuklanishini keltirib chiqarmoqda. Ularga xizmat vazifasiga kirmaydigan qo'shimcha majburiyatlar yuklash holatlari uchrab turibdi. Kodeks loyihasining 110-moddasida axborot xizmatining majburiyligini belgilash va unga qo'shimcha vazifalar yuklashni taqiqlash ushbu institutning mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot xizmati xodimining professionalizmi faqat bilim bilan o'lchanmaydi. Ayni damda yuksak kasbiy etika bilan ham o'lchanadi. Jumladan, axborot xizmati faoliyatini unifikatsiyalashda xalqaro ekspert Margerit Sallivanning "Mas'ul axborot xizmati asari"dagi konseptual qarashlar muhim ahamiyatga ega. Muallifning ta'kidlashicha, demokratik jamiyatda matbuot bilan muloqot qilish axborot xizmati uchun muqaddas burchdir [18]. Bu yondashuv milliy Axborot kodeksi loyihasida axborot xizmatlariga berilayotgan huquqiy maqom bilan to'laqonli hamohangdir. Shuni ta'kidlash joizki, axborot xizmati xodimi madaniyatli, xushmuomala va jamoatchilik fikriga hurmat bilan qaraydigan shaxs bo'lishi lozim. Shuningdek u, tashkilotning ijobiy imijini shakllantiruvchi asosiy figuradir. Kodeksda axborot xizmati xodimlarining kasbiy odob-axloq

standartlarini xalqaro tajriba asosida belgilash tashkilot va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro ishonch ko'prigini mustahkamlaydi. Bu axborot madaniyati tushunchasining huquqiy mazmunini boyitadi va davlat organlarining ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi

Mazkur tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida ilmiy-huquqiy takliflar taqdim etiladi. Hamda axborot kodeksi loyihasini takomillashtirish maqsadda quyidagi taklif kiritiladi.

1. Axborot kodeksi loyihasining 110-moddasida axborot xizmati rahbarining huquqiy maqomini boshqaruv iyerarxiyasida ham tashkilot rahbarining o'rinbosari maqomiga to'liq o'tkazish lozim. Bu amaliyotdagi "maslahatchi" va "o'rinbosar" tushunchalari o'rtasidagi nomutanosiblikni hamda boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan munosabatlardagi iyerarxik to'siqlarni bartaraf etadi.

2. Kodeksda axborot xizmatlariga ularning xizmat vazifasiga kirmaydigan, strategik faoliyat sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi qo'shimcha topshiriqlarni yuklashni qat'iy taqiqlovchi normani belgilash zarur. Bu axborot xizmatini strategik qarorlar qabul qilishda ishtirok etuvchi mustaqil institut sifatida huquqini mustahkamlaydi.

3. Axborot xizmati xodimlari uchun xalqaro standartlar va Margerit Sallivanning konseptual qarashlari asosida ishlab chiqilgan "Kasbiy odob-axloq qoidalari"ni alohida ilova sifatida kiritish lozim. Ushbu norma tashkilot va jamoatchilik o'rtasidagi "ishonch ko'prigi"ni mustahkamlashga hamda axborot madaniyatining huquqiy mazmunini boyitishga xizmat qiladi

**Xulosa.** Axborot kodeksining qabul qilinishi O'zbekistonda axborot sohasidagi qonunchilik inflyatsiyasiga chek qo'yadi va normativ hujjatlarni tizimlashtiradi. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, axborot sohasidagi tarqoq qonun hujjatlarini bekor qilib, ularni yagona kodifikatsiyalangan hujjatga jamlash huquqiy mavhumlikni bartaraf etishning strategik asosidir. Shuningdek, axborot xizmatlarining huquqiy maqomini unifikatsiyalash ularning iyerarxik o'rnini aniqlashtiradi. Shu bilan birgalikda, davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlik madaniyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Axborot kodeksi loyihasining 110-moddasida axborot xizmatining huquqiy maqomi, vazifalari va vakolatlarining yagona normalarda birlashtirilishi sohadagi iyerarxik to'siqlarni bartaraf etishga va matbuot kotibining davlat boshqaruvidagi rolini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Kodeks doirasida taklif etilayotgan islohotlar fuqarolarning axborot olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini kafolatlashda va davlat organlarining ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning xalqaro maydondagi demokratik imijini yanada yuksaltiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda axborot xizmatlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni unifikatsiyalash va kodifikatsiyalash masalalarini o‘rganishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida Axborot kodeksi doirasida davlat organlari ochiqlik siyosatining boshqa zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mamatov A.A. Ensuring Information Security: Foreign Experience, Challenges, And Solutions // International Journal of Management and Economics Fundamental. – 2025. – Vol. 05, Issue 09. – P. 29–34.
2. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. – T.: «Donishmand ziyosi», 2024. – 260 b.
3. Bachilo I.L. (ed). Systematization and Codification of Information Legislation. – Moscow: IGP RAN, 2015. – 260 p.
4. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
5. Eshbekov T. Axborot xizmatlari: o‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2019. – 224 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Kengashlarining 2025-yil 4-martdagi “2025 — 2029-yillarga mo‘ljallangan qonun ijodkorligi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 595-V/KQ-105-V-sonli Qo‘shma qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
7. O‘zbekiston Respublikasining Axborot kodeksi loyihasi (QL-1126/22-6). – project.gov.uz.
8. Talimonchik V.P. Legal Aspects of International Information Security // Social and Legal Studios. – 2020. – Vol. 3, No. 3. – P. 278–282.
9. Zhyvko Z.B., Rudyi T.V., Senyk V.V., Rodchenko S.S. Problems of the regulatory framework for ensuring cybersecurity in Ukraine // Social and Legal Studios. – 2020. – Vol. 3, No. 3. – P. 18–25.
10. DSTU ISO/IEC 27001:2015. Informatsiyani texnologii. Metodi zaxistu. Sistemi upravlinnya informatsiynoyu bezpekoyu. Vimogi. – Kiyev: DP «UkrNDNS», 2016. – 30 s.

11. The Model Information Code for the State Parties of the CIS. Accepted at the 38th plenary session of Inter-parliamentary Assembly of the State Parties of the CIS. – St. Petersburg, 2012.
12. Bulgakova E.V. Information Code: Myth or Reality? // Systematization and Codification of Information Legislation. – Moscow: IGP RAN, 2015. – P. 69–76.
13. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi Qonuni (O‘RQ-369). – 2014-yil 5-may // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 125-son qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi «Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4366-son qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi «Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik naoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-6247-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
17. Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmati rahbarlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (Ro‘yxat raqami 3760). – 2026-yil 22-yanvar // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
18. Sullivan M. Mas‘ul axborot xizmati. – T.: 2005. – 120 b